

SURXONDARYO VILOYATINING IQTISODIY GEOGRAFIK TAVSIFI

Olimqulov Yashnar Maxmadamin o`g`li¹,
Hasanov Anvar Zikriyo o`g`li²,
Jumanazarov Jumaniyoz Anvar o`g`li³

Termiz Davlat Universiteti Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya ta`lim yo`nalishi talabalari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7898556>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbekiston respublikasining eng janubiy qismida joylashgan Surxondaryo viloyati, xizmat ko`rsatish sohalar, dunyo hamjamiyatida tutgan nufuzi, bozor, urbanizatsiyasi, shahar va qishloq joylarda xizmat ko`rsatish tarkibi, shaxarlar soni haqida so`z boradi. Xizmat ko`rsatish jarayonining bugungi kundagi holati, takliflar, e`tibor qaratilishi lozim bo`lgan jihatlar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Surxondaryo, Xizmat ko`rsatish, Urbanizatsiya, shahar, qishloq, aholi, O`zbekiston, viloyat, tumanlar, manzilgoh.

Mamlakatimizning eng janubida joylashgan Surxondaryo viloyati 1941-yil 6- martda tashkil topgan. Uning maydoni 20,1 ming kv. km bo`lib, O`zbekiston Respublikasi jami hududining 4,5 foiziga teng. Viloyatda, 2022yil 1-yanvar ma`lumotlari bo`yicha, 2 743,2 ming kishi yoki mamlakat aholisining 7,7 foizi istiqomat qiladi. Bundan ko`rinadiki, mintaqaning demografik salohiyati uning maydoniga nisbatan 1,6 marta yuqori. Surxondaryo viloyati respublika hududiy mehnat taqsimotida o`zining agrosanoat majmuasi, xususan, paxta va g`alla yetishtirish, sabzavotchilik, chorvachilik mahsulotlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, bu yerda tog`-kon sanoati (polimetal rudalar, toshko`mir, neft, tuz), qurilish va farmatsevtika sanoati tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Mintaqa o`zining qator betakror xususiyatlariga ega. Jumladan, u respublikamizning eng janubida, eng tog`li, eng issiq hududida joylashgan. Viloyatda urbanizatsiya va sanoatlashuv darajasi eng past, demografik rivojlanish, ya`ni aholi tabiiy ko`payishi eng yuqori hududlardan biridir. Ma`muriy jihatdan Surxondaryo viloyati 14 ta qishloq tumani, 8 ta shahar va 114 ta shaharchalardan iborat. Har bir qishloq tumaniga o`rtacha 1,44 ming kv km maydon to`g`ri keladi. Viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926-yil) qishloq tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va Sherobod tumanlari sanaladi. Maydoni bo`yicha eng kattalari - Sariosiyo va Boysun, eng kichigi Angor (atigi 0,39 ming kv. km); ular orasidagi farq 10 barobarga yaqin. Umuman olganda, Boysun, Sariosiyo, Sherobod va Qumqo`rg`on tumanlari birgalikda 12,6 ming kv.km yoki viloyat maydonining 62,6 foizni egallaydi. Surxondaryo viloyati mamlakatimizning eng janubiy qismida joylashgan. U ayni bir paytda Markaziy Osiyoning ham Janubiy qismida joylashgan bo`lib, uning hududi quruq subtropik iqlimiy mintaqaga to`g`ri keladi. Viloyat hududi 37°10-39°02 shimoliy kenglik va 66°32-68°25 sharqiy uzoqlik chiziqlari kesib o`tadi. Surxondaryoviloyatining chekka (va ayni bir paytda janubiy geografik) o`rni uning boshqa viloyatlarga nisbatan ko`proq horijiy davlatlar bilan chegaralanishini taqozo qilgan. U yaqin horijiy davlatlar Tojikiston bilan shimol, shimoli-sharq va sharq tomondan va Turkmaniston bi-lan g`arb tomondan, horijiy davlat Afg`oniston bilan esa janubiy tomondan Amudaryo o`zani orqali chegaralanadi. SHuningdek viloyat g`arbda baland tog`lar orqali mamlakatimizning Kashqadaryo viloyati bilan ham katta masofada chegaralanadi. Bu chegaraning sarhad chizig`i Respublikamizning eng baland tog`i Hisor tizmasining qirralariga to`g`ri keladi. «Dunyo osmoni» deb nom olgan Pomir tog`iga mansub bo`lgan Hisorning qudratli devor tarzida cho`zilgan tizmalari: Ko`hitang (uning viloyat

hududida joylashgan eng baland chuqqisi dengiz sathidan 3723 metr (3168 m), Sarimas (1890 m), Suvsiztog' (2122 m), Kulbatog' (2130 m) orqali o'tgan bu chegara ko'p joylarida yahshi ajratilmagan. Viloyatning Qashqadaryo orqali bo'lgan bu chegarasi shimolroqda CHaqchar va Boysuntog' suvayirg'ichi, so'ngra janubi-g'arbda SHO'rob botig'ining boshlanrich nuqtasi, Suvsiz tog' va Ko'hitangning shimoldagi qirrasini orqali o'tadi.

Viloyat hududi egri chizilgan uchburchakni eslatadi. Uning o'lchamlari: shimoldan janubga 220-250 km, g'arbdan sharq-ga esa 150-170 kmga cho'ziladi. Demak u shimoldan janubga ancha cho'zilgan. Viloyatning uch tomondan tog'lar bilan o'ralgan, chegarasi janubiy tomonga ochiq. Uning janubdagi Amu-daryo o'zani orqali Afg'oniston davlati bilan o'tgan chegara-asi esa daryo o'zaniga ko'ra g'oyat egri bugridir. Surxondaryoning g'arbiy va shimoliy-g'arbiy chegara chiziqlarida joylashgan baland tog'lar viloyatda o'zgacha iqlimiy sharoit hosil qiluvchi omillardir. Janubiy chegaradagi ochiqlik esa shimoliy, shimoli-rarbiy havo massalarining viloyat hududiga kirib kelishi uchun «darvoza» hisoblanadi.

Surxondaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil

1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumani 392,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,6 % ni) va Qumqo'rg'on 238,7 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on 222,1 ming kishini (8,3 %), aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 76,5 ming kishi (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Termiz shahri 1,8 % ni, Denov tumani 2,0 % ni va Sariosiyo 1,8 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qiziriq tumanida -1,6 % ni tashkil etdi.

Viloyat xalq xo'jaligi o'tgan yarim asr ichida birmuncha rivojlandi, uning tarmoq to'zilishi ko'paydi, sanoat ishlab chiqarishida, qishloq ho'jaligida, transportda yangi tarmoqlar, sohalar vujudga keldi. Yaqin o'tmishda viloyat iqtisodiyotida faqat qishloq ho'jaligi etakchilik qilar edi. U ham primitiv ish qurollari (omoch, ypoq, ketmoq va b.)ga tayanib olib borilardi. SHuning uchun ham qishloq ho'jaligida mehnat unumdorligi past edi. Viloyat halq ho'jaligida sanoat ishlab chiqarishi (ayniqsa engil va oziq-ovqat sanoati), qishloq ho'jaligi (ayniqcha dehqonchilikda Paxta va burdoy etishtirish; chorvachilikda esa qoramol va qo'ychilik), transport (va ayniqsa te'mir yo'l va avtomobil yo'li transporti) salmoqli o'rin tutadi. Surxondaryo viloyati xo'jaligi mintaqaning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, tarixiy rivojlanish xususiyatlari asosida shakllangan. Umuman olganda, viloyat iqtisodiyoti ko'proq agrar yo'nalishga ega. U respublika yalpi ichki mahsulotining 4,1, sanoat ishlab chiqarishining 1,5, qishloq xo'jalik mahsulotlarining 7,6, chakana savdo xajmining 6,5 va pullik xizmatlarning 4,1 foizini beradi. Xalk iste'mol mollari ishlab chikarishda viloyat ulushi 2,2, kapital kuyilmalarda 3,9, eksport xajmida 1,8 va importda 7,9 %. Eslatib o'tamiz, Surxondaryoning mamlakat aholisidagi ulushi 7,6 foizga teng. Demak, yuqoridagi statistik ma'lumotlardan xulosa kilish mumkinki, bu yerda asosan qishloq xo'jaligi respublika ahamiyatiga ega, kolgan sohalar esa sust rivojlangan. Viloyat iqtisodiyotining ichki tarkibi quyidagicha; sanoat - 7,6 %, qurilish - 8,0 %, qishloq xo'jaligi - 38,3 %, transport va aloqa - 13,1 %, savdo va umumiy ovqatlanish - 10,1 %, soliqlar - 3,2 %, boshqa tarmoqlar - 19,7 % Qizig'i shundaki, 2000 yilda sanoat viloyat yalpi hududiy mahsulotining 18,6 foizini ta'minlagan. Ko'rinib turibdiki, makroiqtisodiyotning ushbu tarmog'i viloyatda yanada zaiflashgan, xo'jalik yunalishi yanada agrarlashib borgan. Kichik tadbirkorlik yoki biznesning yalpi xududiy mahsulot tarkibidagi hissasi tobora oshib bormokda (74,2 %). Bu esa bozorislohotlarining izchil amalga

oshirilishidan darak beradi. Qishlok xo'jaligida uning ulushi 99,1, qurilishda 78,2, chakana savdoda 37,7 %, ga teng.

Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi, mavjud xom ashyo va mineral resurslarga tayangan holda, eng so'nggi yillarda biroz rivojlanish ko'rsatkichlarini namoyon qilmoqda. Shakllanib borayotgan sanoat majmuasi tarkibida yoqilg'i- energetika majmuasining ulushi 17,2 %, qurilish materiallari sanoatiniki - 7,1 % bo'lsa, yengil sanoat jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 40,1 foizini, oziq- ovqat sanoati 19,1 foizini ta'minlaydi. Yoqilg'i sanoatida asosan ko'mir (Boysun, Sharg'un), yengil sanoatda ko'proq paxtani qayta ishlash, oziq-ovqatda omixta yem va un-yorma sanoati yetakchilik qiladi. Shu bilan birga, og'ir sanoat tarmoqlari, xususan, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo, elektr energetika ancha past ko'rsatkichlarga ega. Ayniqsa, viloyatning elektr energetika va qurilish bazasining zaifligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga, jumladan, "Qishloq" dasturida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish uchun qulay imkoniyat bermaydi. Bu yerda atigi uncha katta bo'lmagan To'palang SES bor, xolos. Sement zavodi esa Sherobod tumanida joylashgan. Sanoat korxonalarining umumiy soni 1536 ta, shundan 24 tasi faoliyat ko'rsatayotgan yirik sanoat korxonalari hisoblanadi. So'nggi yillarda qurilish materiallari sanoati ham rivojlanmoqda. Barcha qishloq tumanlarida g'isht zavodlari mavjud. Sanoat geografiyasida Denov va Sho'rchi shaharlarioldinda, ularning har biriga viloyat sanoat mahsulotining 12-14 foizi to'g'ri keladi. Eng yetakchi sanoat markazi esa Jarqo'rg'on bo'lib, u viloyat yalpi sanoat mahsulotining 1/5 qismini beradi, uning yirik korxonasi „Surxonteks“ qo'shma korxonasi hisoblanadi. Surhondaryoda birinchi Paxta tozalash zavodi yuqorida qayd qilganimizdek 1912 yilda qurilgan. 1930 yillarda esa quvvati uncha katta bo'lmagan Denov va Hayrobod Paxta tozalash zavodlari barpo qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Surhondaryoda Paxta tolasini ipgazlamaga, gazlamani esa kiyim-kechakka aylantirish yuzasidan o'zoq kelajakka mo'ljallangan rejalar to'zilmogda, konkret ishlar qilinmogda. Asta-sekin viloyatning ayrim shaharlarida ip-gazlama (Jarqurg'on), trikotaj va tikuvchilik (Sariosiyo), poyabzal (SHo'rchi), gilam (Oltinsoy, Uchqizil, Jarqurg'on va b.), ipak gazlama (Boysun) ishlab chiqarish rivojlanib bormogda. Viloyat oziq-ovqat sanoati un va un mahsulotlari (SHo'rchi), go'sht va sut va sut mahsulotlari (Denov, Termiz), gusht va gusht mahsulotlari (Termiz), vino va vinomateriallari, spirtli va sharbatli ichimliklar (Denov, Oltinsoy), meva va va o'zum konservalari va sharbatlari (Denov, Oltinsoy, Sariosiyo) ishlab chiqarishga ko'ra tez rivojlanib bormogda.

Viloyatda 2022-yil yanvar-mart oylarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1 269,5 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 foiz (o'sish ko'rsatkichi bo'yicha respublika hududlari orasida oxirgi o'rin)ga oshgan. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 1,1 foizni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlarining 37,4%i (2021 yilning mos davrida 37,2%) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan yaratilgan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi - 2,1% (26,1 mlrd so'm), ishlab chiqariladigan sanoatning ulushi - 89,8% (1140,4 mlrd so'm), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatining ulushi - 6,2%(78,5 mlrd so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatining ulushi - 1,9%(24,5 mlrd so'm)ni tashkil qilgan. Viloyatda sanoat mahsulotlarining 56,6 foizi viloyatning 4 ta hududi - Jarqo'rg'on (17,7%), Sherobod (13,3%), Denov (11,1%) tumanlari hamda Termiz shahri (14,5%)ga to'g'ri keladi hamda sanoat mahsulotlari hajmida yuqori ulushni tashkil qilgan. Sho'rchi (8,3%),

Qumqo'rg'on (8,0%), Termiz (6,1%) tumanlari sanoat mahsulotlari hajmida o'rtacha ulushni, Uzun (5,5%), Muzrabot (4,5%), Sariosiyo (3,4%), Qiziriq (2,5%), Oltinsoy (2,1%), Angor (1,5%), Boysun (1,1%), Bandixon (0,3%) tumanlarida esa ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida past ulushni tashkil qilgan. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan Jarqo'rg'on tumanida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (224,6 mlrd so'm) Bandixon tumaniga (4,4 mlrd so'm) nisbatan 50,8 baravar, Boysun tumaniga (13,7 mlrd so'm) nisbatan 16,4 baravar ziyod bo'lgan. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami sanoat mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati Oltinsoy (120,7%), Bandixon (117,6%), Termiz (114,4%) tumanlarida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa, Sariosiyo (84,4%), Qumqo'rg'on (91,5%) hamda Angor (94,3%) tumanlarida eng past ko'rsatkichni tashkil qilgan. Bundan tashqari viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 52,9 foizi (603,3 mlrd so'm) to'qimachilik sanoatiga, 19,4 foizi (221,2 mlrd so'm) oziq ovqat sanoatiga, 11,6 foizi (132,3 mlrd so'm) koks va neftni qayta ishlash sanoatiga hamda 16,1 foizi qolgan boshqa yo'nalishlarda ishlab chiqarilgan.

U viloyatning ichki taraqqiyotida va tashqi aloqasida g'oyat katta ahamiyatga ega. Surhondaryoda birinchi temir yul oktyabr tuntarilishdan oldin o'tkazilgan. 1915 yilda Kogon-Termiz temir yuli qurilgan. Termizdan viloyatning shimoliy tumanlari orqali 1925 yildan boshlab temir yo'l o'tkazila boshladi. O'sha yili hukumat qarori bilan 248 km lik Termiz-Du-shanba yo'lini qurishga kirishildi. Bu yo'lning qurilishi viloyat Markazi Termizni Markaziy Osiyoning yirik shaharlari Toshkent va Dushanba bilan bog'ladi. Tez orada ushbu temir yo'l liniyasi atrofida viloyat ishlab chikarish kuchlari tez rivojlanib ketdi. Hozirgi vaqtda viloyatda temir yullarning umumiy uzunligi 375 km, har ming kv km ga zichligi 18 km. Unda bir yil-da 1.448.411 t-km yuk va 697 ming passajir tashiladi. Viloyatning yuk tashish oborotida temir yul transportining hissasi katta. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan mamlakat temir yo'l transporti qurilishida ham yangi ufqlar ochilmoqda. Masalan: 1995 yilning 17 avgustida O'zbekiston Respub-likasi Vazirlar Mahkamasi G'uzor-Boysun-Qo'mqo'rg'on temir yo'lini qurish uchun mahsus qapop qabul qildi. Bu temir yulning qurilishi va ishga tushirilishi 1995-2000 yillarni o'z ichiga oladi. Temir yo'lning umumiy o'zunligi 223 km, shundan 115 kilometri Surxondaryo va 108 kilometri Qashqadaryo hududidan o'tadi. Bu temir yo'l Surhondaryoni mamlakatimizning poytaxtiga 120-130 km ga yaqinlashtirdi. Bu narsa ayni bir paytning o'zida Surhondaryoda temir yul zichligini oshirdi, yuk va passajir tashish hajmini ko'paytirdi, tashqi aloqani yana ham kengaytirdi.

References:

1. Mirziyoev SH.M."Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" T: O'zbekiston 2017
2. Mirziyoev SH.M."Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" T: O'zbekiston 2017
3. Asanov G. Nabixonov M. Safarov I. "O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi." — T.: «O'qituvchi» 1994.
4. Atamirzaev O. Tuxliev X. "Uzbekistan: priroda, naselenie, ekonomika." - T.: Uzbekiston Milliy ensiklopediyasi 2009.
5. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi.- T.: «O'qituvchi», 1996.
6. Ro'ziyev A. Surxondaryo viloyati.- T.: «Jayxun», 1996.

7. Ro'ziyev A. Surxon-Sherobod qishloq xo'jaligi.T.: "O'zbekiston" 1965.
8. Soliev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T.: "Mumtoz so'z". 2010.

INNOVATIVE
ACADEMY